

ZULFIYA ISROILOVA IJODIDA QO'LLANGAN O'XSHATISHLAR VA KO'CHIMLAR TAHLILI**Faxriddinova Sevara Erkinovna***Buxoro davlat universiteti 4-bosqich talabasi***MAQOLA
MALUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:***Received: 25.11.2025**Revised: 26.11.2025**Accepted: 27.11.2025***KALIT SO'ZLAR:***she'r, tasvir
vositalari, ko'chim,
metonimiya,
ta'sirchanlik,
metafora, o'xshatish.*

Ushbu maqolada Zulfiya she'riyati badiiy talqin nuqtai nazaridan o'rganilib, uning asarlarida qo'llangan ko'chimlar — metafora, metonimiya, tashbeh va ramziy obrazlarning poetik funksiyasi tahlil qilinadi. Shoiraning tabiat manzaralari, inson ruhiyati va lirik kechinmalarni uyg'un holda ifodalashi, badiiy vositalar orqali mazmunni chuqurlashtirishi ilmiy asosda ko'rsatiladi. Maqola Zulfiyaning poetik mahorati, so'z tanlovi va badiiy tasvir uslublarning o'quvchi hissiyotiga ta'sirini yoritib, uning ijodida ko'chimlarning markaziy o'rin tutishini asoslaydi. Maqola tilshunoslik, lingvopoetika va she'riyat tahlili bilan shug'ullanuvchilar uchun amaliy va nazariy ahamiyatga ega.

Kirish

O'zbek adabiyotining zabardast vakillaridan biri bo'lgan Zulfiya Isroilova lirikasida badiiy tasvir vositalari, xususan, o'xshatishlar va ko'chimlarning alohida o'rni bor. Shoiraning she'rlari nafosat, mayin tuyg'u, vatanga muhabbat, ayol qalbi nozikliklari, sadoqat va mehr kabi mavzularning betakror poetik ifodasi bilan ajralib turadi. Uning badiiy mahorati aynan tilning obrazlilik imkoniyatlaridan samarali foydalanishda yaqqol namoyon bo'ladi.

Asosiy qism. Zulfiya Isroilova ijodining eng muhim xususiyati – undagi lirizm va badiiy obrazlarning yuqori darajada takomillashganidir. Shoiraning poetik olamida ayol qalbi, tabiat manzaralari, sevgi, sadoqat, mehnat, vatan tuyg'usi o'zaro uyg'unlashgan holda talqin etiladi. Bu obrazlarning shakllanishida o'xshatish va turli ko'chimlar asosiy vosita sifatida

namoyon bo'ladi. Shoir ko'pincha real hayot hodisalarini majoziy ko'rinishda berib, o'quvchini bevosita tuyg'ular dunyosiga olib kiradi. Ayniqsa tabiat tasvirlari: tong, kecha, yomg'ir, qushlar, barglar, shamol – bular shunchaki peyzaj emas, balki shoiraning ruhiy holatini aks ettiruvchi ramzlardir. Shu sababli Zulfiya lirikasida badiiy ifodaning asosiy kuchi aynan tashbeh, metafora, metonimiya, mubolag'a kabi vositalarda mujassam. Quyida ular bilan birma-bir tanishib chiqamiz.

Yana yilday uzun bo'ldi tun,
Ko'zlarimga kelmadi uyqu.
Turli xayol chulg'ab o'yimni,
O'tday yoqdi boshimni parquv.

Zulfiya Isroilovanning "Hayot jilosi" deb nomlangan ushbu she'rida kechani yilday uzun bo'ldi tun deb tasvirlash chiroyli o'xshatish bo'lib, lirik qahramonning kechayotgan iztiroblarini, ruhiy noxotirligini ifodalaydi. Tun vaqtining "yil"ga tenglashtirilishi vaqtning ichki sezgi bilan qanday og'ir va sust o'tayotganini ko'rsatadi. She'ning o'tday yoqdi boshimni parquv misralarida fikrlar, xayollarning o'tga o'xshatilishi orqali ichki og'riq, ruhiy qiynalish kuchaytirilgan. "Parquv" so'zi o'zbek tilining izohli lug'atida yostiq ma'nosida qo'llanilgan.

Gavhar marjon kabi yaltirab tursa,
Meni ham o'raydi she'riy hayajon!
Quyoshni qarshilab chiqib ayvonga,
Nurlarga ko'milib yuraman shodon.

Ushbu parcha Zulfiya she'riyatiga xos bo'lgan tabiat tasviri va ichki kechinmalar uyg'unligining yorqin namunalaridan biridir. Birinchi misrada gavhar marjon kabi yaltirab tursa degan o'xshatish qo'llanilib, tabiat manzarasining jilo va go'zalligi gavhar va marjon singari qimmatbaho buyumlar orqali badiylashtirilgan. Bu tashbeh shoiraning dunyoni nafis idrok etishini, tabiat hodisalarini estetik qadriyat sifatida qabul qilishini ko'rsatadi.

Olcha guli bargiday,
O'ynab, uchib yog'ar qor...
Ajab, qorga qarayman,
Ko'zimda yashnar bahor.
Daraxtlarning shoxida
Qor yashnaydi xuddi gul,
Qiya tepaliklarning



Yaxida yarqirar ul.
Chana tortgan bolalar
Telpagida pag'a qor.
Qiyqirib o'ynashida,
Shodligida bor bahor.
Bahor yetilar qorda,
Dam olgan yer to'shida.
Bahor kezar inida
Uxlagan qush tushida.
Sholikor, paxtakorning
Rejasida bor ko'klam.
Kumush libosda yashnab
Hayot qaynagan o'lkam
Yosh-u qarisi bari
Dilida qordan viqor.
Olmosday qor tagidan
Kuladi ko'rkam bahor.

Zulfiya tomonidan yaratilgan “Qor” she’ri tabiat manzaralarini tasvirlash orqali hayot, quvonch va yangilanish g’oyalarini ilgari suruvchi nihoyatda nafis lirik she’rdir. Shoir qorni sovuq, muzdek hodisa sifatida emas, balki bahorni yashirayotgan, undagi uyg’onish kuchini o’zida saqlagan tirik obraz sifatida gavdalandiradi. She’rda qish va bahor qarama-qarshi fasllar sifatida emas, balki bir-birini to’ldiruvchi, bir-biriga eltuvchi bosqichlar sifatida talqin etiladi. Olcha guli bargiday, o’ynab, uchib yog’ar qor — bu misra she’rning umumiy ohangini belgilaydi. Qor olcha guliga qiyoslanib, tashbeh orqali uning nozikligi, hushbo’ylik tasavvuri, bahoriylik ruhi beriladi. Sovuq qorga bahor gulining badiiy ulanilishi tabiatdagi qarama-qarshilikni uyg’unlashtiradi. Daraxtlarning shoxida qor yashnaydi xuddi gul misrasi qorning o’zini gulga tenglashtirib, uning qishda ham tabiatni bezab turuvchi go’zallik manbai ekanini ko’rsatadi. Bu yerda qor qishning sovuq nishonasidan ko’ra go’zallik va yangilanish ramzi sifatida namoyon bo’ladi. Olmosday qor tagidan kuladi ko’rkam bahor she’rning eng yorqin go’zal misralaridan biri. Qorning “olmos”ga o’xshatilishi uning nur sochuvchi, jilo beruvchi, qimmatli hodisa ekanini anglatadi. Bu yerda qor to’siq emas, balki bahorni yetishtiruvchi parda, tabiatning sokin mehnatkashi sifatida talqin etiladi.



Zulfiya she'riyatida ko'chim, ya'ni ma'no ko'chish vositalari (metafora, metonimiya, sinekdoxa va boshqalar) alohida badiiy qudrat kasb etadi. Shoira so'zga ko'chma ma'no berib, uni tasviriylik va ohangdorlik bilan boyitadi. Zulfiya qo'llagan ko'chimlar nafaqat poetik obraz yaratadi, balki she'rning hissiy kuchini oshirib, o'quvchini mazmunni chuqurroq idrok etishga undaydi. Shuning uchun ham uning satrlarida ko'chimlar ko'p uchraydi va ular she'rning badiiy-estetik qiymatini belgilovchi muhim unsurlardan biriga aylanadi. Dastlab metafora haqida fikr yuritamiz.

"Metafora" atamasi ilk bor Izokrat tomonidan "Evagorus" asarida qo'llangan. Ko'chimning bu turi ikki narsa yoki hodisa o'rtasidagi har qanday jihatdan o'xshashlikka asoslanadi. Metaforik ma'nolar insonning tashqi ko'rinishiga, jismoniy va ruhiy holatiga, tana a'zolari harakatiga, hayot bosqichlariga, kiyim-kechaklari va ularning qismlariga asosan yuzaga kelishi mumkin.

Ingliz olimi E.Ortoni kundalik hayotda metaforadan foydalanishning quyidagi uch asosiy sababini ko'rsatgan:

1. Ular bizga qisqacha gapirishga yordam beradi.
2. Ular bizning nutqimizni yorqin qiladi.
3. Ular ifodalab bo'lmaydigan narsani ifodalashga imkon beradi.

Zulfiya Isroilova ijodida ham bir qancha metaforadan foydalanish kuzatiladi. Quyidagilar shular jumlasidandir:

Salqin saharlarda, bodom gulida,
Binafsha labida, yerlarda bahor.
Qushlarning parvozi, yellarning nozi,
Baxmal vodiylarda, qirlarda bahor.

Mazkur she'rdagi binafsha labida, yellarning nozi, baxmal vodiylarda kabi jumalari metafora qo'llanganligidan darak beradi. Binafshaning labi, yellarning nozi, baxmal vodiylar kabi birikmalarda adibimiz so'zlarni juda ta'sirli qo'llanilishiga katta ahamiyat bergan. Aslida esa binafshaning labi bo'lmasligi, yellarning nozi esa shabbodaning o'ynoqi bo'lib esayotgani va ba'zan esib, ba'zan xotirjam to'xtami haqida, baxmal vodiylar esa bahorda hamma yoq yam-yashil tusga kirganligini ifodalaydi.

Qancha sevar eding, bag'rim, bahorni,
O'rik gullarining eding maftuni.
Har uyg'ongan kurtak hayot bergan kabi,
Ko'zlaringga surtib o'parding uni.

Mazkur satrlarda ham metafora qo'llangan. Bag'ri bahorni sevishi, uning maftuni ekanligi, har uyg'ongan kurtak unga hayot berishi, kurtakning uyg'onishi bu yerda metaforaga yaqqol misol bo'la oladi. Shoira she'riyati shuni ko'rsatadiki, haqiqiy she'r bu nafaqat qofiyalangan so'zlar, balki inson qalbiga yo'l topuvchi chuqur ma'nolar manbaidir.

Zulfiya she'riyatida metonimiya ham keng qo'llaniladi. Metonimiya (yunoncha; metonymia - "qayta nomlash") ifodalanmishlarining o'zaro bog'liqligi, aloqadorligi asosida bir ifodalovchining boshqa ifodalovchi uchun ishlatilishi. Metonimiya ham yangi ma'no hosil qilish jarayoni va bu jarayon natijasining barqarorligiga ko'ra lison va nutqqa daxldor hodisa. Boshqacha aytganda, metonimik hosila ma'no sof nutqiy yoki lisoniy(lashgan) bo'lishi mumkin. Bu vosita yordamida shoira murakkab tushunchalarni soddalashtiradi, tasvirlarni jonli qiladi va hissiy ta'sirni kuchaytiradi. Masalan:

Menga Navoiydan ayting alla deb,
Lutfiydan ongimga ziyo taratding.
Qiyналgan olamga bo'lgин dalda deb,
Asli, o'zing meni shoir yaratding.

Ushbu misralarda shoira hissiy ta'sirni kuchaytirish maqsadida metonimiyalardan foydalangan. Lutfiydan ongimga ziyo taratding deya birgina Lutfiyning nomi orqali uning umumiy adabiy me'rosi nazarda tutilgan. She'rda shoir o'z ijodiy kelib chiqishini va ilhom manbalarini ifodalaydi. Navoiy va Lutfiy shaxslar orqali u o'zining she'riy kuchi va bilimini olganini bildiradi.

Tashqarida qirchillar yanvar,
Yonog'ingda oyning kulishi.
Menga hayot, baxtingdan so'ylar.
Yuragingning tekis urishi.

Ushbu she'rda shoir tabiat manzarasi va inson his-tuyg'ularini uyg'unlashtirgan holda, hayotiy quvonch va ruhiy tinchlikni ifodalaydi. She'rda qish fasli va sovuq manzaralar orqali tashqi muhit tasviri berilgan bo'lsa, ayol yuzidagi tabassum va yurakning tekis urishi orqali ichki iliqlik, sevgi va baxt his-tuyg'ulari aks ettiriladi. Bu qarama-qarshi obrazlar she'rga ritmik uyg'unlik va hissiy chuqurlik beradi. Aynan shoira tashqarida qirchillar yanvar deya yanvar orqali qishni nazarda tutishi metonimiyani hosil qilgan. Shoiraning poetik uslubi o'quvchida iliq, tasavvurga boy tuyg'ular uyg'otadi va badiiy zavq beradi.

Xulosa. Zulfiya ko'chimlar, metonimiya, metafora, tashbeh va ramziy obrazlar orqali o'quvchiga nafaqat tashqi manzarani, balki ichki ruhiy kechinmalarni ham yetkazadi.

Metonimiya yordamida shaxs, ob'ekt yoki hodisalar boshqa bog'liq tushunchalar bilan ifodalanadi, bu esa she'r mazmunini boyitadi. Metafora va tashbeh esa his-tuyg'ularni jonli, tasviriy va estetik jihatdan kuchaytiradi. Shu tariqa, Zulfiya ijodida badiiy vositalar bir butun sifatida ishlatilib, o'quvchida chuqur hissiy taassurot qoldiradi va lirik qahramonning ichki olami bilan tabiat, hayot va sevgi o'rtasidagi uyg'unlikni yoritadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -T.: «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи», 2020, -460 bet.
2. Jo'rayeva.B., Sharipova.O. "Metaforaning tilshunoslikda namoyon bo'lishi" Buxoro davlat universiteti
3. Turkiy adabiyot durdonalari. Hamid Olimjon. Zulfiya. Toshkent. "O'zbekiston", 2022, -376 bet
4. Zulfiya. Yillar sadosi. Saylanma. Toshkent. "G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti", 1995. -168 bet
5. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/o-zbek-ziyolilari/zulfiya-1915-1996>
6. <https://izoh.uz/>